



THE PHENOMENON OF MORAL RELATIVISM IN SOCIAL NETWORKS AND ITS IMPACT ON INDIVIDUAL CONSCIOUSNESS

Muhammadbobur Muminov

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Military Unit 71908

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: moral relativism, individual consciousness, social networks, digital society, values, youth, media literacy.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: This article analyzes the phenomenon of moral relativism in social networks and its impact on individual consciousness from a socio-philosophical perspective. It examines the relativization of moral norms in the digital society, the transformation of values in the minds of young people, and the replacement of moral standards by the “like” and “follow” culture. The study identifies both the positive and negative consequences of moral relativism and provides recommendations for forming a stable moral consciousness based on a balance between national and universal values.

IJTIMOYIY TARMOQLARDA “AXLOQIY RELATIVIZM” FENOMENI VA UNING SHAXS ONGIGA TA’SIRI

Muhammadbobur Muminov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

71908 harbiy qism

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axloqiy relativizm, shaxs ong, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli jamiyat, qadriyatlar, yoshlar, media savodxonlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy relativizm fenomenining namoyon bo'lishi hamda uning shaxs ongiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli jamiyat sharoitida axloqiy me'yorlarning nisbiylashuvi, yoshlar ongida qadriyatlarining o'zgarishi, shuningdek “like” va “follow” madaniyatining axloqiy qadriyatlarni almashtirishi jarayoni ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda axloqiy relativizmning ijobiy va salbiy oqibatlari aniqlanib, milliy va

umuminsoniy qadriyatlar muvozanati asosida barqaror axloqiy ongni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

ФЕНОМЕН МОРАЛЬНОГО РЕЛЯТИВИЗМА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ ЛИЧНОСТИ

Мухаммадбобур Муминов

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Воинская часть 71908

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	моральный	Аннотация:
релятивизм, сознание личности, социальные сети, цифровое общество, ценности, молодежь, медиаграмотность.	личности, общества,	В статье рассматривается феномен морального релятивизма в социальных сетях и его влияние на сознание личности с социально-философской точки зрения. Анализируется процесс относительности моральных норм в условиях цифрового общества, изменение ценностей в сознании молодежи, а также замещение нравственных ориентиров «лайк» и «фолловер» культурой. Выявлены положительные и отрицательные последствия морального релятивизма и даны рекомендации по формированию устойчивого морального сознания на основе диалектики национальных и общечеловеческих ценностей.

XXI asrda raqamli jamiyat shakllanishi insonning ijtimoiy xulqi va qadriyatlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar axborot tarqatish, muloqot qilish, qarash va qadriyatlarni ifodalashning asosiy maydoniga aylandi. Biroq bu jarayon axloqiy me'yorlarning an'anaviy shakllarini zaiflashtirib, ularning nisbiylashuviga olib kelmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "layk" va "follow" kabi baholash mexanizmlari ko'pincha axloqiy qadriyatlarning o'rnini egallamoqda. Bu esa jamiyatda "axloqiy relativizm" fenomenining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchi B. Jo'rayev ta'kidlaganidek, raqamli muhitda yoshlarning dunyoqarashida ma'naviy qadriyatlar bilan virtual qadriyatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmoqda.

Axloqiy relativizm – bu axloqiy me'yor va qadriyatlarning mutlaq emas, balki shartli, vaqt va makonga bog'liq, ijtimoiy sharoitga qarab o'zgaruvchan ekanini ifodalovchi falsafiy konsepsiya. Falsafada bu tushuncha qadimgi sofistlardan boshlab shakllangan. Protagor "Inson barcha narsalarning mezonidir" degan mashhur iborasi orqali axloqiy relativizmning ilk shaklini bildirgan edi. Zamonaviy davrda esa R.Rortining pragmatizmi va J.-F.Lyotarlar axloqiy

qadriyatlarning pluralizmi va nisbiyligini asoslab berdi. Shunday qilib, axloqiy relativizm falsafasi ijtimoiy ongda an'anaviy me'yorlar barqaror emas, balki kontekstual ekanini ta'kidlaydi.

Axloqiy relativizm – bu axloqiy me'yorlar va qadriyatlarning mutlaq emas, balki ma'lum jamiyat, madaniyat yoki davr sharoitiga bog'liq ekanini ifodalovchi falsafiy konsepsiya.

Zamonaviy davrda G.Harman, D.Wong, J.Prinz kabi olimlar axloqiy relativizmni tizimli tarzda tahlil qilganlar. Masalan, D.Wong o'zining “Natural Moralities: A.Defense of Pluralistic Relativism” asarida axloqiy qadriyatlar ko'plab variantlarga ega bo'lib, ular universal emas, balki pluralistik tabiatga egaligini asoslagan .

Menimcha, axloqiy relativizm shaxs ongida muayyan erkinlikni ta'minlaydi. Lekin uni mutlaq qo'llash ijtimoiy hayotda axloqiy “beqarorlik”ni yuzaga keltirishi mumkin.

Axloqiy relativizmning ijtimoiy ongga ta'siri murakkab. Bir tomondan, u turli qarashlarni qabul qilish va tolerantlikni rivojlantiradi. Ikkinchi tomondan, umumiy axloqiy asoslarning zaiflashuvi ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin. Meningcha, axloqiy relativizm ijtimoiy ongni yangilash imkonini bersa-da, u milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanati orqali cheklanmasa, jamiyatda axloqiy bo'shliq paydo bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda jamiyatdagi eng muhim axborot va muloqot maydoniga aylandi. Unda turli madaniy, diniy va mafkuraviy qarashlar bir joyda to'qnashib, qadriyatlar xilma-xilligini yuzaga keltirmoqda. R.Robertsonning globallashuv haqidagi nazariyasida “mahalliy” va “global” qadriyatlarning uyg'unlashuvi “glokalizatsiya” deb talqin etiladi. Bu jarayon ijtimoiy tarmoqlarda yanada tezlashib, turli axloqiy me'yorlarning yonma-yon mavjud bo'lishiga olib kelmoqda.

A.Karimov raqamli madaniyat sharoitida yoshlarning ongida “Axloqiy mezonlarning nisbiyligi” kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda turli qarashlarning bir vaqtning o'zida mavjudligi axloqiy qarorlarni ham ko'p variantli qiladi.

Menimcha, ijtimoiy tarmoqlar shaxs ongida yangi tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin, biroq bu jarayon ko'pincha “normasizlik” (anomiya) holatini ham yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda “like”, “share”, “follow” kabi baholash mexanizmlari axloqiy qadriyatlar o'rnini egallab bormoqda. Shaxsning qadri yoki ijtimoiy maqomi ko'pincha uning postlari nechta “layk” to'plagani bilan o'lchanmoqda. Sh.Turkle bu jarayonni “raqamli avtobiografiya” deb atab, shaxsning virtual reytingi uning real ijtimoiy mavqeiga bevosita ta'sir qilayotganini ta'kidlaydi.

Mening nazarimda, “like” va “follow” tizimi shaxsni ko‘proq tashqi tasdiqqa bog‘lab qo‘yadi. Axloqiy qadriyatlar o‘zini-o‘zi anglashdan emas, balki boshqa foydalanuvchilarning bahosidan shakllana boshlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy relativizmning eng ko‘zga ko‘ringan shakllari – bu nafrat nutqi (hate speech), trolling va “cancel culture” fenomenlari hisoblanadi.

Hate speech – ijtimoiy, etnik yoki diniy guruhlariga qarshi nafratni targ‘ib qiluvchi nutq bo‘lib, ko‘plab platformalarda keng tarqalgan. Amnesty International ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlarning 41 foizi internetda diskriminatsion yoki haqoratli kontentga duch kelgan.

Trolling – boshqa foydalanuvchilarni qasddan haqorat qilish yoki provokatsiya qilishdir. Psixolog A.Buckels trollingni “internet orqali ijtimoiy manipulyatsiya” sifatida talqin qiladi.

Cancel culture – ma’lum bir shaxs yoki hodisaga qarshi jamoaviy “ijtimoiy sud” mexanizmi bo‘lib, u ko‘pincha axloqiy qadriyatlarning mutlaq emas, balki o‘zgaruvchan va subyektiv ekanini ko‘rsatadi.

Menimcha, bu hodisalar axloqiy relativizmning ijtimoiy tarmoqlarda ifodalanishining yorqin ko‘rinishidir. Ammo ular tolerantlikni emas, balki keskin qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlarda “axloqiy muvozanat”ni saqlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Raqamli jamiyat va ijtimoiy tarmoqlarning tezkor rivojlanishi yoshlar ongida axloqiy mezonlarning qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelmoqda. O‘zbekistonlik olim B.Jo‘rayevning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning “qadriyatlar ierarxiyasi” o‘zgarib, an’anaviy me’yorlar o‘rnini tez-tez yangilanadigan virtual qadriyatlar egallamoqda.

Meningcha, yoshlar ongida axloqiy mezonlarning bunday o‘zgarishi ikkiyoqlama jarayon. Bir tomondan, bu ularni global qadriyatlarga ochadi, ikkinchi tomondan esa, milliy an’analardan uzoqlashish xavfini kuchaytiradi.

Virtual muhit shaxsga turli xulq-atvor modellarini taqdim etadi. Ular orasida ijobiy – bilim almashish, ko‘ngillilik faoliyati, onlayn ta’lim kabi imkoniyatlar mavjud. Ammo salbiy jihatlari ham bor: “hate speech”, trolling, “cancel culture” kabi hodisalar axloqiy muhitni zaiflashtiradi. Z.Bauman bu jarayonni “suyuq modernlik” sharoitida qadriyatlarning barqaror emasligi bilan izohlaydi.

Menimcha, virtual muhitda yoshlar ijobiy xulq modellaridan ham, salbiylaridan ham tez ta’sirlanadi. Shuning uchun ham pedagogik va axloqiy tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhim.

Axloqiy relativizm shaxs dunyoqarashiga chuqur falsafiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u tolerantlikni kuchaytiradi, turli qarashlarga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantiradi. Ikkinchi

tomondan, “hamma narsa mumkin” degan qarash shakllanib, axloqiy beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin.

R.Rortning pragmatizm falsafasida axloqiy qadriyatlar jamiyat kelishuvi mahsuli sifatida talqin etiladi va ular mutlaq bo‘lishi shart emasligi aytiladi. Bu g‘oya yoshlar ongida dunyoqarashning moslashuvchan bo‘lishini ta’minlasa-da, umumiy mezonlarning yo‘qolishiga ham olib keladi.

Axloqiy relativizm shaxs dunyoqarashini global darajada kengaytirsada, u milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatiga asoslanmasa, jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli axloqiy relativizmni “milliy an‘ana + global qadriyat” dialektikasi asosida o‘rganish zarur.

Axloqiy relativizm sharoitida eng muhim masala – milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirishdir. Yoshlarning ongini tarbiyalashda milliy qadriyatlarga tayangan holda umuminsoniy tamoyillarni singdirish barqaror dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Axloqiy tizimlarni jamiyatning tarixiy va madaniy an‘analari bilan bog‘lash zarurligini, ammo umuminsoniy axloqiy tamoyillarsiz ijtimoiy hayot izchillikka ega bo‘lolmaydi.

Milliy qadriyatlar shaxsni o‘z ildizlariga bog‘lab tursa, umuminsoniy tamoyillar uni global jamiyatning bir qismi sifatida shakllantiradi. Demak, muvozanat dialektik uyg‘unlikka asoslanishi lozim.

Raqamli jamiyatda axloqiy relativizmning salbiy ta’sirlarini yumshatishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyos. UNESCO ekspertlari axloqiy ta’lim va media savodxonlikni “sun‘iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar asrida eng muhim ijtimoiy kompetensiya” deb e’tirof etadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham media savodxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. axloqiy ta’limni mustahkamlashni yoshlarni “axloqiy immunitet” bilan ta’minlovchi eng muhim vosita sifatida baholanadi.

Menimcha, yoshlar uchun axloqiy ta’limni media savodxonlik bilan integratsiyalash kerak. Chunki tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qila olish ko‘nikmalari bo‘lmasa, ijtimoiy tarmoqlardagi relativizm ularni beqaror dunyoqarashga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy relativizmning ko‘plab shakllari (trolling, hate speech, cancel culture) barqarorlikni izdan chiqaradi. Bunday muammolarning oldini olish uchun quyidagi yo‘llar muhim:

- normativ mexanizmlar: platformalarda axloqiy va huquqiy me’yorlarni mustahkamlash;
- ta’lim dasturlar: yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishga o‘rgatish;
- ma’naviy tarbiya: milliy va diniy qadriyatlarni global kontekstda targ‘ib qilish;

jamoatchilik nazorati: jamoatchilikning faol ishtiroki orqali internet madaniyatini shakllantirish.

Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat, jamiyat va shaxs birgalikda harakat qilishi kerak. Faqat huquqiy cheklov emas, balki axloqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini oshirish barqaror muvozanatni ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida axloqiy relativizm fenomeni va uning ijtimoiy tarmoqlar hamda shaxs ongiga ta'siri har tomonlama tahlil qilindi. Antik davrdan boshlab shakllangan nisbiylik g'oyalari zamonaviy globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida yangi mazmun kasb etgani aniqlandi. Ijtimoiy tarmoqlar esa ushbu jarayonni tezlashtirib, yoshlar ongida qadriyatlar tizimini qayta shakllantiruvchi asosiy omilga aylandi.

Axloqiy relativizmning shaxs ongiga ta'sirida ijobiy va salbiy jihatlar muvozanati quyidgilarda namoyon bo'ladi:

Ijobiy jihatlar:

turli madaniy va diniy qarashlarga bag'rikenglikni kuchaytiradi;

global dunyoqarash va kosmopolit ongni shakllantirishga yordam beradi;

shaxsga tanlash va erkinlik imkonini beradi.

Salbiy jihatlar:

axloqiy mezonlarning barqarorligini zaiflashtiradi;

"Normasizlik" (anomiya) holatini kuchaytiradi;

yoshlarning ongida "like" va "follow" kabi tashqi tasdiqqa asoslangan sun'iy qadriyatlar ustunlashadi;

hate speech, trolling va cancel culture kabi salbiy hodisalarni kengaytiradi.

Axloqiy relativizm shaxs ongida global ochiqlik yaratadi, ammo milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanati ta'minlanmasa, u axloqiy bo'shliq va beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda "axloqiy relativizm" fenomeni va uning shaxs ongiga ta'siri yuzasidan quyigi tavisyalarni beramiz:

milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi: shaxs tarbiyasida milliy madaniyatni asrab-avaylash bilan birga global axloqiy tamoyillarni singdirish.

axloqiy ta'lim va media savodxonlik: yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda tanqidiy fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalariga o'rgatish.

raqamli muhitda axloqiy barqarorlikni ta'minlash: davlat, ta'lim tizimi, jamoatchilik va oilaning hamkorligini kuchaytirish.

tadqiqotlarni kengaytirish: axloqiy relativizmning raqamli madaniyat, sun'iy intellekt va metavers sharoitidagi yangi ko'rinishlarini ilmiy tahlil qilish.

Axloqiy relativizm shaxs dunyoqarashini yangilashda muhim falsafiy hodisa bo'lib, u shaxsni erkin fikrlashga va global qadriyatlarni qabul qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, axloqiy barqarorlikni saqlash uchun uni milliy qadriyatlar, ma'naviy an'analar va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Wong D. Natural Moralities: A Defense of Pluralistic Relativism. – Oxford: Oxford University Press, 2006.
2. Karimov A. Raqamli transformatsiya va sun'iy intellektning ijtimoiy ahamiyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
3. Jo'rayev B. Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar dunyoqarashining o'zgarishi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
4. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000.
5. Rorty R. Contingency, Irony, and Solidarity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.